



UDK: 342.156

OLIJ TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI VA ZARURATI

АКТУАЛЬНОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВУЗАМИ

THE RELEVANCE AND NEED TO IMPROVE THE MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Gafurov Anvar Bazarbayevich ¹

Annotatsiya

Oliy ta'lim muassasalari jamiyatda o'ziga xos ahamiyatga ega, chunki ular jamiyatning kelajak avlodi uchun asosiy poydevor sifatida qaralib, jamiyatni taraqqiy etishiga yoki uni tanazzulga yetaklashi mumkin. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari xalq, avlod va jamiyat oldida ikki karra ma'suldir. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvni adolatli, javobgarlik, shaffoflik hisobotdorlik va yuksalishlikka qaratilgan bo'lishi lozimdir. Bu esa korporativ boshqaruvning tamoyillaridir.

Abstract

Higher education institutions have a special importance in the society, because they are considered as the main foundation for the future generation of the society, and they can lead the society to progress or lead it to decline. That is why higher education institutions have a double responsibility to the people, the generation and the society. And this, in turn, should be aimed at justice, accountability, transparency, accountability and growth in the management of higher education institutions. And this is the principles of corporate governance.

¹ PhD, ALFRAGANUS UNIVERSITY, Toshkent, O'zbekiston. e-mail: g.anvar@mail.ru. ORCID: 0009-0005-1918-2507

Абстракт

Высшие учебные заведения имеют особое значение в обществе, потому что они рассматриваются как основная опора для будущего поколения общества, и они могут вести общество к прогрессу или вести его к упадку. Поэтому высшие учебные заведения несут двойную ответственность перед людьми, поколением и обществом. А это, в свою очередь, должно быть направлено на справедливость, подотчетность, прозрачность, подотчетность и рост в управлении высшими учебными заведениями. И это принципы корпоративного управления.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, korporativ boshqaruv, javobgarlik, yuksalish, shaffoflik.

Key words: Higher education institution, corporate governance, accountability, growth, transparency.

Ключевые слова: ВУЗ, корпоративное управление, подотчетность, рост, прозрачность.

KIRISH

Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasa(OTM)larida manfaatdor tomonlari tomonidan korporativ boshqaruv tuzilmasi va mexanizmi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilishga qanchalik ahamiyat berilishi yoritiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun bir qancha rivojlangan davlat OTMlarida korporativ boshqaruvining asosiy jihatlari bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilinadi.

Natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, OTMlarda korporativ boshqaruv tizimi joriy etilishi asosida aniq ma'lumotlarni oshkor qilinishi natijasida boshqaruvda shaffoflik va javobgarlikni oshirilishga olib keladi. Shuningdek, bu tizim nafaqat OTM boshqaruvida shuningdek, OTM buxgalteriyasida ham moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda korporativ boshqaruv tizimiga oid ma'lumotlarni faol nashr etish zarurati bo'yicha yangi tajribani keltirib chiqaradi.

Yangi davlat boshqaruvi (New public management) davlat sektoridagi qarashlari va boshqaruvning kengroq to'plamiga chuqur singib ketishi asosida korporativ boshqaruv tizimi shakllandi. OECD mamlakatlarida byurokratik tizim natijasida boshqaruvda samaradorlik va shaffoflik ko'rsatkichlarining sustlashib borishi natijasida New public management 1980 va 1990 yillarda taraqqiy etib boshlagan. New public managementning asosi ham osmondan olinmadi, shunchaki xususiy sektor boshqaruv usullari davlat sektoriga o'zlashtirilgan. O'zlashtirilgan usullarga asosan quyidagilar kiradi: markazlashmagan boshqaruv, natijalarga asoslangan moliyalashtirish va rejalashtirilgan natijalarga erishilganlik darajasi bo'yicha hisobdorlik, strategik boshqaruv va rejalashtirish, shartnomaga asoslangan munosabatlarni qabul qilish hamda boshqaruv madaniyatini mustahkamlashdir [1].

New Public Management uslubidagi yangi islohotlar Yevropa mamlakatlaridagi oliy ta'lim muassasalarini boshqarishga ham katta ta'sir ko'rsatdi. A'zolar soni oshib borayotgan ittifoqda OTMlar o'zlarining moliyaviy va inson resurslarini boshqarishda, ta'lim jarayonida, tadqiqot dasturlari va talabalarni qabul qilish hajmi bo'yicha qaror qabul qilishda yuqori avtonomiyaga ega bo'ldi. Avtonomiyaning ortishi natijalarga asoslangan moliyalashtirish bilan birikib ketdi: davlat mablag'lari tobora ortishi, mahsulot yoki natija ko'rsatkichlari sifatida ifodalangan maqsadlarga erishishga bog'liq [2].

Oliy ta'lim muassasalari o'z vazifalarini bajarish uchun ustuvor yo'nalishlarni va shunga mos ravishda maqsadli resurslarni aniqlashi kerak. Universitetlar strategiyalarni aniqlay olmasalar, ustuvorliklarni belgilay olmasalar, o'qitish va tadqiqot maqsadlarini tanlay olmasa va amalga oshira olmasa umuman o'z tuzilmalari va tashkilotlarini o'zgaruvchan muhitga moslasha olmasa, samarali va mustahkam bo'lolmaydi.

Shuning uchun ham, XXI asr OTMlari boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni qabul qilishi zarur va korporativ boshqaruv kabi xususiy sektor modellariga amal qilish tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Ushbu tizimga rioya qilgan holda, OTMlar korporativ siyosat va rejalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda tajribaga ega bolgan va rahbarlik qilish hamda boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan boshqarilishi lozimligini ko'rsatadi. Mazkur korporativ boshqaruv tuzilmasi oliy ta'lim muassasalarining nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini amalga oshirishi, uzoq muddatli biznes-rejalar tuzishi, o'z missiyasi va strategik qarashlarini aniqlashi, asosiy faoliyat va samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishi hamda yillik byudjet harajatlarni belgilashi va nazorat qila oladi.

Korporativ boshqaruv mexanizmlarini amalga oshirish universitet boshqaruvini takomillashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun harakatlantiruvchi vosita sifatida ifodalash mumkin, chunki u strategiyalarni belgilashda kollegial nazorat va boshqaruvi orqali samaradorlik olib keladi [3]. Shuningdek, ushbu tizim OTMning boshqaruvida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga (boshqaruvni shaffof bo'lishiga) yoki o'sib borayotgan raqobatga bardosh berishga (yangi ta'lim yo'nalishini joriy etish yoki dolzarbligini yoqoyotgan yo'nalishni tugatish), reyting pozitsiyalarini yaxshilash, xarajatlar uchun chegaralarni belgilash va kengroq hamjamiyat uchun ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy majburiyat bilan tavsiflangan munosabatni qabul qilish imkonini beradi. Universitet faoliyatini yanada samaraliroq qilish, boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirish, kollegial organlar taklif etilayotgan yo'nalishlar ko'lamini takomillashtirish va kengaytirishga qaratilgan [4].

Universitetlar institutsional avtonomiyasini mustahkamlash uchun korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishi kerak, shu bilan birga jamiyatga nisbatan oshkoralik va natijalar ustidan nazoratni kuchaytirishga sababchi bo'ladi. Universitetlar boshqaruvi mustaqil, hisobdorlik va baholashni bog'lashi kerak. Shu maqsadda bizning OTMlarida ushbu tizimning


boshlangich qadamlari qo'yilgan, jumladan, O'zbekiston Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 35ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi.

MATERIAL VA METOD

Ushbu maqola ma'lumotlari turli xil davlat vazirliklari va idoralaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlar, shuningdek, statistik hisobot va hujjatlar tahliliga asoslanadi. Ma'lumotlar tahlili seminarlar, fokus-guruh muhokamalari va ish beruvchilar bilan ekspert so'rovnomalar asosida to'ldirildi.


TAHLIL VA NATIJA

Hozirgi kunda, respublikamizda jami oliy ta'lim muassasalari soni 210 ta bo'lib shundan 115 ta davlat tassarufida va 65 ta nodavlat hamda chet el OTM filiallari 30 tani [5] tashkil etmoqda (1-rasm).




1- rasm. Respublika bo'yicha OTM soni

Ushbu OTMlarni viloyatlar kesmida ko'radigan bo'lsak, quyidagi raqamlarga duch kelishimiz mumkin, jumladan, poytaxtda faoliyat yuritayotgan OTMlar soni 63ta, Samarqand viloyatida Toshkent shaharidagi nisbata 4.5 barobar kam ya'ni 14 ta, Farg'ona viloyatida esa salkam 6 barobar kam ya'ni 11 ta OTM faoliyat yuritib kelmoqda (2-rasm).




2-rasm. OTM respublika viloyatlari kesmida

Keyingi 3-rasmda, respublika bo'yicha OTMlarda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar soni hamda tahsil olayotgan talabalar soni ko'rsatilgan. Demak, respublika bo'yicha 783 ming nafar talaba OTM tahsil olib kelmoqda, shundan 33 foizi (254 881) Toshkent shahrida, 9 foizi (76 032) Samarqand viloyatida va 7 foizi (52 913) Qoraqalpog'iston respublikasida joylashgan OTMlarda tahsil olib kelmoqda (3-rasm).



3-rasm. OTMlarda talabalar va professor-o'qituvchilar soni.


OTMlarni qamrab olish darajasi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2022 yilda jami 385 437 nafar maktab bitiruvchilaridan 295 393 nafari, yoki 77 foizi oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida ishtirok etgan. Ularning 85 869 nafari yoki 23 foizi davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan +4% ga, 2020 yilga nisbatan +12% ga oshgan [6].



4-rasm. OTM bitiruvchilarni qamrab olish prognozi [7]


Lekin, ko'rinib turganidek, OTMlarida bitiruvchilarni qamrab olishga hali ham ehtiyoj yuqori, jumladan, 2030 borib, bitiruvchilarni qamrab olishni 50 foizga oshirishni rejalashtirilgan bu esa 782 993 nafar talabadan 1.174 millionga yetkazish degani.

Endi, o'z navbatida talabalar kontingenti oshirish yaxshi, lekin talabalarni bilib va ko'nikmalarni berish uchun ilmiy salohiyatga ega bo'lish muhim ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu masalada, "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ilmiy salohiyatiga oid barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Milliy ilmiy portalni yaratish hamda nufuzli xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalarida ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish choralari ko'rish choralari belgilangan.



5-rasm. OTMlarda ilmiy salohiyatni oshirish rejasi (foiz)

Ko'rinib turganidek, hozirga vaqt respublikada 210 ta OTMLar faoliyat yuritib kelmoqda (1-rasm), ushbu ta'lim dargohlarida 782 993 nafar talaba ta'lim olmoqda (4-rasm), bu ta'lim jarayonida faol ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilar salohiyati salkam 40 foizni (5-rasm) tashkil etmoqda.



6-rasm. OTMLlarda boshqaruvini avtomatlashtirish jarayoni (foiz)

O'z navbatida, endi ushbu tizimni boshqaruviga axborotlashtirish tizimini joriy etish muhimdir. Shundagina, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, inson omilini kam ta'sir ko'rsata olishiga erishish mumkin. Ushbu sohada anchagina kamchiliklarimiz bor, jumladan, bir xabarni bosh ofis(rektorat)dan filial (fakulteti)ga borishga ancha vaqt ketadi, yoki fakultet hisobotlarni taqdim etishda hali ham xodimlarni fiziologik ishtirokini ta'minlash ustuvor qaraladi.

Shu kabi axborot almashinuv jarayoni quyidagi rasmda ham ko'rishimiz mumkin, ta'lim qamrovi va ilmiy sahohiyatni oshirish bilan birga ushbu ko'rsatkichni ham 100 foizga chiqarish rejalashtirilgan.

XULOSA

Bu qismda aytishim kerak bo'lgan, so'z yakunim quyidagilarni o'z ichiga oladi, ta'limga e'tibor berayotgan davlat ta'limga kam e'tibor berayotgan davlatni boshqarishga o'tadi. Demak, bizning OTMLlarda ham ta'lim qamrovini kengaytirish orqali yangi bozorni egallashimiz orqali ilmiy-innovasion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borish, zamonaviy bilimga ega va yangicha fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar shakllantirish orqali ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimizga shak-shubha yoq.

Adabiyotlar:



1. Aucoin, P. 1990. *Administrative reform in public management: Paradigms, principles, paradoxes and pendulums*. *Governance* 3(2): 115–137.
2. Leitner, K.H., Elena, S., Fazlagic, J., Kalemis, K., Marinaitis, Z., Secundo, G., Sicilia, M.A., and Zaksa, K. 2014. *A strategic approach for intellectual capital management in European universities. Guidelines for Implementation, UEFISCDI Blueprint Series*
3. Florez, J.M., M.V. Lopez, and A. Lopez. 2014. *Corporate governance, analysis of the top 100 universities in the Shanghai ranking*. *Revista de Educacio'n* 364: 170–196.
4. Trakman, L. 2008. *Modelling university governance*. *Higher Education Quarterly* 62(1/2): 63–83.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar varizligi, <https://edu.uz/uz/pages/sss>
6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi <https://t.me/uzedu/18612>
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida muallif ishlanmasi